

## Jinoyat – insoniylikka xiyonat

2021-yil 13-yanvar kuni soat 10.00 da Institut Xotin-qizlar kengashi raisi boshchiligida "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqaruv" fakulteti xotin-qizlar kengashi raisi R.T.Kodirova, Ingliz tili kafedrasida professor-o'qituvchilari hamkorligida "Firibgarlik jinoyati - dolzarb muammo" mavzusida ma'naviy -ma'rifiy uchrashuv o'tkaziladi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi huzuridagi Tergov departamenti kadrlar bo'linmasi boshlig'i Valixonov Otabek Hamza o'g'li O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti katta tergovchisi Asraev Umidjon Mamaraim o'g'li qatnashdilar.



Tadbirni institutimiz Yoshlar bilan ishlash buyicha prorektori Ruzimurat Kungratovich Choriev kirish so'zi bilan ochib, mamlakatimizda sud-huquq tizimi hamda huquqni muhofaza qilish tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar, fuqarolarning huquqlarini davlat tomonidan muhofaza etilishi borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar xususida to'xtalib o'tdilar. Mutaxassislar tomonidan Firibgarlik jinoyatining vujudga kelish jarayoni, ushbu illatning yil sayin oshib borish dinamikasi, qaysi sohalarda ushbu jinoyatning oshib borishi hamda firibgarlik jinoyatidan saqlanish borasida mazmunli ma'ruza qilindi. Tadbir qizg'in savol-javoblar asosida bo'lib o'tdi.



TIQXMMI matbuot xizmati